

**MAHALLALARDA “IJTIMOIY PROFILAKTIKA”NI
KUCHAYTIRISHDA “FIDOKOR YOSHLAR” JAMOATCHILIK PATRUL
GURUHLARINING O’RNI**

**B.E.Berdialiyyev – O’zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
boshlig‘i, polkovnik, yuridik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)**

Mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minalash borasida o‘rnatalgan mexanizmlarning samarali amalgalari oshirilishini ta’minalashda joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoatchilik tuzilmalarining kuch va vositalarini muvofiqlashtirgan holda safarbar qilish, shuningdek huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ularning mas’uliyatini oshirish maqsadida 2018-yil 24-dekabrda “Jamoat xavfsizligini ta’minalash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilingan edi. Unga muvofiq profilaktika inspektorlarining yordamchilariga tegishli tavsiyaga asosan ichki ishlar organlarining oliy ta’lim muassasalariga, shu jumladan kasbiy tayyorgarlik fakultetiga kvota asosida o‘qishga kirish huquqi berildi.

Bundan tashqari, profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlashda “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari faoliyati tashkil etildi.

Shulardan kelib chiqib, “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarining sohasidagi muammolarni ham hal etishi lozimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan ichki ishlar organlari o‘z vakolati doirasida “*Fidokor yoshlar*” jamoatchilik patrul guruhlarining faoliyatini ham o‘rganish kabi vakolatlarni ham kiritish lozim. Chunki, jamoat tartibini buzishning oldini oluvchi subyekt sifatida “Fidokor yoshlar” faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, har bir mahallada “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari shakllantirildi. Bunda “Yoshlar” tushunchasining mohiyati haqida so‘z borar ekan,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shuni aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi (qonunining 3-moddasida “Yoshlar (yosh fuqarolar) – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslardir”, deb huquqiy ta’rif berilgan¹. Demak, yoshlar aholining o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan qatlami bo‘lib, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlarning hissasi aholining 58,8 foizini tashkil etadi².

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni oldini olish maqsadida “*Fidokor yoshlar*” *jamoatchilik patrul guruhlari shakllantirilar ekan, ularning aniq vazifalarini va ular faoliyati bilan bog‘liq masalalarni belgilab beradigan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi lozim.*

Shu o‘rinda biror bir normativ huquqiy hujjatlarda “Fidokor yoshlar” tushunchasiga ta’rif berilmagan. Shulardan kelib chiqib, “Fidokor yoshlar” tushunchasiga ta’rif berish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”ga bag‘ishlangan ustuvor yo‘nalishida yoshlar muammolariga alohida e’tibor qaratilayotgani, uyushmagan yoshlar soni yildan yilga tobora ortib borayotgani amaldagi mavjud qonunchilik va uni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish orqali yoshlar masalalariga oid qonunchilik normalarini takomillashtirishni, xususan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunida “Fidokor yoshlar” tushunchasiga ta’rif berish hamda Fidokor yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlarini shakllantirish lozimligini taqozo etmoqda. “Fidokor yoshlar” – o‘z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyatda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, faol tarzda samarali amalgamoshirayotgan, o‘qiydigan, ishlaydigan va jamoat tartibini saqlashga yordam beradigan yoshlar guruhini anglatadi. Bu toifadagi yoshlar o‘z maqsadini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Ularda ijtimoiy faollik, huquqiy, siyosiy ong va madaniyat darajasi yuqori bo‘ladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 2016-yil 14-sentyabrdagi qonuni // <http://lex.uz>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1147> (14.10.2017).

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xullas, yuqorida keltirilgan “Fidokor yoshlar”ga xos xususiyatlarni inobatga olib, shuningdek amaliyotdagi “*Fidokor yoshlar*” tushunchasining mohiyati bilan bog‘liq tushunmovchiliklarga barham berish, qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqni to‘ldirish va “Fidokor yoshlar” bilan ishlashga mas’ul bo‘lgan mutasaddi tashkilotlarning faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuniga quyidagi mazmundagi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasini quyidagi mazmundagi 8-xatboshisi bilan to‘ldirish: “*Fidokor yoshlar – ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanadigan, ishga joylashish, ta’lim olish hamda fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokining boshqa shakllarini amalga oshirish bo‘yicha yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalanadigan 14 yoshga to‘lgan 30 yoshdan oshmagan shaxslar toifasi*”.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalarining ijtimoiy faolligi hamda huquqiy, siyosiy ong va madaniyat darajasi yuqori fudokor yoshlarni aniqlaydi, ro‘yxatini yuritadi va ularni ijtimoiy faol yoshlar doirasiga jalb etadi.

Shulardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining va uning hududiy bo‘linmalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari nazarda tutilgan 19¹-moddasida “*huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda Yoshlar ishlari agentligi o‘z vakolati doirasida “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarining faoliyatini ham o‘rganib ular bilan hamkorlikni amalga oshiradi*” degan qism bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Bundan tashqai, Ichki ishlar organlari salbiy ta’sirlarga beriluvchan yoshlarni aniqlaydi, ro‘yxatini yuritadi, ularni “Fidokor yoshlar” guruhi, “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzulmalari faoliyatiga jalb etadi, ularning huquqiy ong va madaniyatini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Mehnat tashkilotlari ishlamaydigan yoshlarni aniqlaydi, ro‘yxatini yuritadi, yoshlar bop ish o‘rinlarini yaratadi va ishsiz yoshlarning bandligini ta’minlaydi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahallalar kesimida tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan yoshlarni aniqlaydi,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ro‘yxatini yuritadi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda ularning bo‘s sh vaqtini samarali tashkil etish, muayyan kasbga yo‘naltirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi”.

Bundan ko‘rinib to‘ribdiki, uyushmagan yoshlar mamlakatimiz yoshlaringning muayyan salmog‘ini tashkil etuvchi, o‘zining huquqbuzarliklarni sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g‘oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj toifasi bo‘lib, ular bilan doimiy va tizimli ravishda profilaktik choratadbirlarni amalga oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, bu borada keng jamoatchilikning hamkorligiga tayanish, qolaversa, sohaga doir qonunchilikni zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirish asosida bu toifa yoshlarning sonini kamaytirish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga erishish mumkin.

Bundan tashqari, mahallalarda huquqbuzarliklarni jilovlash bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan mas’ullarning “ijtimoiy profilaktika”ga muhtoj bo‘lgan shaxslar bilan ishlashi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayrim turdagи jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va unga imkon bergen omillar ilmiy asoslangan holda o‘rganilmay, alohida yondashuv asosida ishslash metodikalari yaratilmaganligi hamda uyushmagan yoshlar bilan ishslash tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli hududda jinoyatchiligi yuqori bo‘lgan “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalar sonining ortib ketishiga olib kelmoqda.

Shularni oldini olish maqsadida mahallalarda “ijtimoiy profilaktika”ni kuchaytirish orqali jinoyatchilikni jilovlashga qaratilgan “*Xavfsiz shahar*” tajribasini joriy etish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirish:

“ijtimoiy profilaktika”ga muhtoj bo‘lgan shaxslarning yagona reestrini shakllantirish va ularning har biri *bilan individual ishslash tizimini* joriy etish orqali sektor rahbarlarining mas’uliyatini oshirish;

aholini qiynab kelayotgan ijtimoiy va kriminogen muammolari ro‘yxatini doimiy shakllantirib borish va ularni hal qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni *monitoring qilib borish tizimini* yaratish;

og‘ir hayotiy ahvolga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo‘lgan har bir oilada

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sharoitni yaxshilash, moddiy va psixologik yordam berish kabi “ijtimoiy profilaktika” ishlarini amalga oshirish;

“oila-mahalla-maktab-mustaqlil hayot” tamoyili asosida har bir nazoratsiz yoki qarovsiz, huquqbuzarlik, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlar, huquq-tartibot organlari, davlat va jamoat tashkilotlarining rahbarlariga biriktirish orqali ular bilan *yakka tartibda ishlash tartibini yo‘lga qo‘yish*;

sodir etilgan jinoyatlarni “mahallaboy” o‘rganish orqali ularning oldini olish bo‘yicha ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish va ular asosida profilaktika inspektori, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi va yoshlar yetakchisi (keyingi o‘rinlarda – “mahalla beshligi”)ni o‘qitish;

ayollarni ish bilan ta’minlash, ularga *huquqiy, ijtimoiy, tibbiy hamda moddiy* yordam ko‘rsatish orqali jinoyat sodir etilishini kamaytirish.

Bundan tashqari, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va boshqa jinoyatlarni barvaqt oldini olish maqsadida “O‘zbekisto Respublikasida “Xavfsiz hudud” tajribasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi YO‘RIQNOMA ishlab chiqish taklif etiladi (Yo‘riqnomalar ilova qilinadi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 2016-yil 14-sentyabrdagi qonuni <https://lex.uz/>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1147> (14.10.2017).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-10-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

5. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun. (2010),
6. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun. (2014). <https://lex.uz/>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (2021). <https://lex.uz/>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (2021). <https://lex.uz/>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2021). <https://lex.uz/>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2021), <https://lex.uz/>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2024) Farmoni. <https://lex.uz/>
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 801-sonli qarori. 30.11.2024 yil. <https://lex.uz/>

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-10-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6755597?ONDATE=16.01.2024%2000>